

## O‘ZBEKISTONNING “YANGI O‘ZBEKISTON – 2030” STRATEGIYASI TARIXIY JARAYON SIFATIDA

**Baxtiyarov Bekzodbek Maxamadsoliyevich**

*Andijon viloyati andijon tumani maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi  
43-umumiy o'rta ta'lim maktabi tarix fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu tezisdagi O‘zbekiston Respublikasining “Yangi O‘zbekiston – 2030” strategiyasini *mamlakat tarixidagi tub burilish davri sifatida tahlil qiladi. Strategiyaning asosiy maqsad va vazifalari, uning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy islohotlar jarayonidagi o‘rni, shuningdek, xalqaro tajriba bilan uyg‘unligi yoritiladi. Maqolada tarixiy kontekst, huquqiy-hujjatli asoslar va istiqbolli yo‘nalishlar tahlil etilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *Yangi O‘zbekiston – 2030, strategik reja, tarixiy jarayon, islohotlar, barqaror rivojlanish.*

**Аннотация.** *В данной работе анализируется стратегия Республики Узбекистан “новый Узбекистан – 2030” как поворотный момент в истории страны. Освещаются основные цели и задачи стратегии, ее роль в процессе социально-политических и экономических реформ, а также ее соответствие международному опыту. В статье анализируется исторический контекст, правовые и документальные основы и перспективные направления.*

**Ключевые слова:** *Новый Узбекистан – 2030, стратегический план, исторический процесс, реформы, устойчивое развитие.*

**Annotation.** *This paper analyzes the strategy of the Republic of Uzbekistan “new Uzbekistan – 2030” as a turning point in the country's history. The main goals and objectives of the strategy, its role in the process of socio-political and economic reforms, as well as its compliance with international experience are highlighted. The article analyzes the historical context, legal and documentary foundations, and promising areas.*

**Keywords:** *New Uzbekistan – 2030, strategic plan, historical process, reforms, sustainable development.*

### KIRISH

O‘zbekistonning so‘nggi yillardagi rivojlanish strategiyalari mamlakatning siyosiy-iqtisodiy hayotida yangi bosqichni boshlab berdi. 2023-yil sentabr oyida tasdiqlangan “Yangi O‘zbekiston – 2030” strategiyasi Harakatlar strategiyasi (2017–2021) va Taraqqiyot strategiyasi (2022–2026)ning mantiqiy davomi bo‘lib, uzoq muddatli milliy rivojlanish konsepsiyasini belgilab berdi [1]. Bu hujjat nafaqat iqtisodiy ko‘rsatkichlarni yaxshilash, balki jamiyatning ijtimoiy-siyosiy barqarorligini ta‘minlash, inson huquqlari

va erkinliklarini kengaytirish, ekologik muvozanatni saqlash va global integratsiyani kuchaytirishni maqsad qilgan.

Strategiya tarixiy jarayon sifatida O'zbekiston taraqqiyotining yangi modelini shakllantiradi. Mustaqillikning dastlabki yillarida boshlangan bozor islohotlari va demokratik institutlarni rivojlantirish yo'lidagi sa'y-harakatlar bugungi kunda keng ko'lamli modernizatsiya, raqamli transformatsiya va barqaror o'sish konsepsiyasi bilan mustahkamlanmoqda [2]. O'zbekiston Respublikasining "Yangi O'zbekiston – 2030" strategiyasi yurtimiz taraqqiyotida yangi, zamonaviy bosqichni boshlab beruvchi tarixiy voqea sifatida qaraladi. Ushbu strategiya mamlakatni yaqin va o'rta istiqbolda barqaror va inklyuziv rivojlantirishga qaratilgan milliy harakat rejasidir. Siyosiy dastur shaklida emas, balki keng jamoatchilik ishtirokidagi, tarixiy tajriba va davlat boshqaruvi tajribasini saqlagan holda tuzilgan hujjatdir.

Strategiyaning tarixi ikki asosiy jarayon bilan uzviy bog'liq. Birinchisi — ilgari qabul qilingan "Yangi O'zbekiston" taraqqiyot strategiyasi hamda uning jamoatchilik muhokamalari natijasi asosida shakllantirilgani; ya'ni strategiya avvalgi strategik yo'nalishlar, xalq fikri va ekspertiza asosida yaratilganligi. Ikkinchisi — strategiyaning 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son farmoni bilan rasmiylashtirilganligi, bu esa hujjatni davlat siyosati darajasiga ko'tarish ekanligini ta'kidlaydi.

Shuni ta'kidlash zarurki, "Yangi O'zbekiston – 2030" strategiyasi xalqlimizning erkin, farovon va qudratli jamiyat barpo etish istagi natijasida paydo bo'lgan kompleks dasturdir. Unda har bir fuqaroga o'z salohiyatini rivojlantirish imkoniyati yaratish, sog'lom, bilimli va ma'naviy barkamol avlodni tarbiyalash, milliy iqtisodiy kuchni mustahkamlash, adolat, qonun ustuvorligi va xavfsizlikni ta'minlash kabi muhim g'oyalar mujassam.

Tadqiqot natijalari: "Yangi O'zbekiston – 2030" strategiyasi 2023-yil sentabr oyida Prezident farmoni bilan tasdiqlanib, davlat boshqaruvi islohotlarining yangi bosqichini boshlab berdi. Unda mamlakatni rivojlantirish bo'yicha 5 ta ustuvor yo'nalish va 100 ga yaqin maqsadlar belgilangan bo'lib, ular jamiyat hayotining turli sohalarini qamrab oladi [3]. Shuningdek, strategiya asosida 369 ta chora-tadbir va normativ-huquqiy hujjat ishlab chiqilishi rejalashtirilgani uning institutsional ahamiyatini ko'rsatadi [4].

Tarixiy jarayon sifatida "Yangi O'zbekiston – 2030" strategiyasi — xalq va davlatning birgalikda belgilagan maqsadi, ya'ni modernizatsiya, demokratik islohotlar, iqtisodiy farovonlik va ekologik barqarorlikni ta'minlash yo'lida keng qamrovli harakatdir. Bu strategiya hukumat islohotlarining kontsepsiyasi emas, balki xalqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilgan aniq yo'l xaritasidir.

Ustuvor yo'nalishlari nuqtai nazaridan strategiya bevosita beshta asosiy tamoyil atrofida shakllangan: ekologik barqarorlik, davlat boshqaruvini isloh qilish, ijtimoiy o'zgarishlar, milliy xavfsizlik, va kelajakni rejalashtirgan yondashuv (future-focused outlook). Shu bilan birga, strategiya mamlakatni "yuqori o'rta daromadli davlat"lar qatoriga olib chiqish, aholi farovonligini oshirish, iqtisodiy raqobatbardoshlikni

kuchaytirish, viloyatlar va tarmoqlarda tinchlik, barqarorlikni ta'minlash kabi ustuvor vazifalarni ham nazarda tutadi.

Yana bir muhim jihat — strategiya raqamli transformatsiyaga keng yo'l ochadi. Masalan, uni asosiy qismiga "Digital Uzbekistan – 2030" dasturi ham kiritilgan bo'lib, mamlakatda raqamli infratuzilmani rivojlantirish, axborot texnologiyalari sohasida yirik davlat dasturini joriy etishni nazarda tutadi. Bu orqali O'zbekistonni Markaziy Osiyoning IT-markaziga aylantirish rejalashtirilgan. Bunga yanada real misol sifatida "IT Park Uzbekistan"ning tashkil etilishi keltiriladi — bu markaz shtatdagi startaplarni qo'llab-quvvatlash, raqamli eksportni rivojlantirish va innovatsiyalar ekotizimini shakllantirishga xizmat qiladi.

Strategiya doirasida yalpi ichki mahsulotni (YaIM) 160 milliard dollarga va aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromadni 4 000 dollarga yetkazish kabi vazifalar belgilangan [5]. Keyinchalik bu prognozlar 200 milliard dollar va 5 000 dollargacha yangilandi, bu mamlakatning iqtisodiy salohiyati yanada oshirilishini bildiradi [6]. Strategiyada shuningdek kichik va o'rta biznes ulushini oshirish, eksport hajmini ko'paytirish va investitsion muhitni yaxshilash muhim yo'nalish sifatida belgilangan.

Tarixiy jarayon sifatida strategiya ijrosida davlat va jamiyat hamkorligi asosiy qadriyatlardan biridir. Hujjat ijrosini ta'minlash uchun Respublika komissiyasi tashkil etilgan, ijro jarayonlari monitoringi yuritilib, aholining fikri va takliflari inobatga olinmoqda. Barcha davlat organlariga ushbu strategiya asosidagi vazifalar shaxsiy mas'uliyat sifatida yuklangani, bundan tashqari, markaziy va mahalliy idoralar faoliyati tanqidiy muhokama qilish tamoyili asosida tashkil etilganligi ta'kidlanadi.

"Yangi O'zbekiston – 2030" strategiyasi — bu nafaqat milliy taraqqiyot dasturi, balki tarixiy jarayon. Bu hujjat tarixi – 2017-yildagi Harakatlar strategiyasi, ya'ni demokratik islohotlar asosida boshlangan islohotlar zanjiri, O'zbekistonning yangi Konstitutsiyasi qabul qilinishi (2023-yil 30-aprel), ijtimoiy transformatsiyaning kuchayishi va global integratsiya yo'li orqali uzluksiz davom etmoqda.

Bugungi kunda ma'naviyat bilan bog'liq masalalar tobora dolzarblashib boryapdi. Bu, o'z navbatida, yangi Uyg'onish davri poydevorini yaratish jarayonida eng rivojlangan jamiyatlar talabiga javob beradigan, erkin va hur fikrli, zamonaviy ma'naviy makonni shakllantirish zarurati nihoyatda muhim masalaga aylanayotganidan dalolat beradi.

Muhtaram Prezidentimiz ta'kidlab o'tganidek, "O'zbekistonning yangi uyg'onish davrini yaratishga kirishar ekanmiz, har bir yurtdoshimizning qalbi va ongida ma'naviyat shu'lasi porlashi va u bizni ezgu ishlarga undab, yuksak mas'uliyat tuyg'usi bilan yashashga da'vat etib turishi zarur". Alohida qayd etish joizki, bugungi kunda mamlakatimizdagi ma'naviy-ma'rifiy sohada amalga oshirilayotgan islohotlar har bir insonni ham qalban, ham ruhan ezgu maqsadlar yo'lida birlashtirishga xizmat qiladi. Bu yo'lda milliy g'oya, milliy ma'naviyat har bir fuqaroning amaliy dasturiga aylanadi. Bugungi kunda "Milliy tiklanishdan - milliy yuksalish sari" degan ulug'vor maqsad kun

tartibiga qo'yildi. Taraqqiyotning yangi davri talablari asosida mamlakatimizda amalga oshiriladigan eng muhim vazifalar belgilab olindi. Mamlakatimizni rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan Taraqqiyot strategiyasida belgilab berilgan ustuvor vazifalar O'zbekistonning yangi Renessansiga - yangi Uyg'onish davriga mustahkam poydevor bo'lishi lozim.

Taraqqiyot strategiyasida belgilab berilgan yangi ma'naviy makonni yaratishga doir islohotlar natijasida bir qancha chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Jumladan, xalqimiz tarixida, qadriyatlarida katta ta'sir kuchiga ega bo'lgan, o'zligimizning ajralmas qismi hisoblangan Islom dinining asl mazmun-mohiyatini ko'rsatib berish, jahon sivilizatsiyasiga bebaho hissa qo'shgan buyuk allomalarning boy ma'naviy merosini tadqiq etish, ularning asarlarida ilgari surilgan umuminsoniyng'oyalar vositasida ma'naviy-ma'rifiy soha faoliyatini isloh qilish masalasiga hukumat darajasida ahamiyat qaratilmoqda. Shu maqsadda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish to'g'risida"gi, "Imom Termiziy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish to'g'risida"gi, "Imom Moturidiy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazini tashkil etish to'g'risida"gi qarorlari qabul qilingan bo'lib, ushbu markazlar tom ma'noda Taraqqiyot strategiyasida belgilab berilgan "Uchinchi renessans" g'oyasining amalga oshirilishida tayanch markazlar vazifasini o'tamoqda.

Yangi ma'naviy makon nima?

Yangi ma'naviy makon Yangi O'zbekistonning ma'naviy qiyofasi yaqqol aks etadigan, xalqimiz intilayotgan va el-yurtimiz baxtiyor yashaydigan ma'rifatli jamiyatdir. Azaliy milliy qadriyatlarimiz, ota-bobolarimizdan meros bo'lib kelayotgan odob-axloq qoidalarining butunlay yo'qolish xavfi yuzaga kelayotgan hozirgi globallashuv sharoitida, ma'naviyat va ma'rifatga, axloqiy tarbiya, yoshlarning bilim olish, kamolga yetishga, intilishiga e'tibor qaratish birinchi o'rinda turadigan jamiyat.

Bu fikrlar prezidentimizning Yangi O'zbekiston Strategiyasi kitobida keltirib o'tilgan.

Endi biz ushbu kitob orqali yuqoridagi fikrlarga javob izlab ko'ramiz.

Avvalambor, "ommaviy madaniyat" ko'rinishida kirib kelayotgan turli tahdidlar, giyohvandlik, diniy ekstremizm, missionerlik kabi balo-qazolardan yoshlarimizni asrash, ularning ta'lim-tarbiyasiga har birimiz mas'ul ekanimizni hech qachon unutmasligimiz kerak. Bu borada biz asrlar davomida shakllangan milliy an'analarimizga, ajdodlarimizning boy ma'naviy merosiga tayanamiz.

Jamiyatimizda sog'lom fikr, sog'lom kuch ustuvor bo'lishi uchun biz ma'naviy hayotimizni yuksaltirish, aholi, avvalo yoshlarimizni turli zararli ta'sirlardan asrash, ularni har tomonlama yetuk insonlar qilib tarbiyalash haqida muntazam o'ylab, faol ishlashimiz zarur.

Ayni vaqtda odamlarning qalbi va ongini egallashga qaratilgan ma'naviy tahdidlar ham tobora xavfli tus olayotganini hisobga oladigan bo'lsak birinchi o'rinda tizimli

ravishda sektorbay, mahallabay va individual tarzda jamiyatimiz hayotida ro'yi berayotgan o'zgarishlar va keng qamrovli islohotlarimiz talablaridan kelib chiqib targ'ibot va tashviqot ishlarini ko'paytirishimiz kerak.

Xalqimizning tinchligi, jamiyatimiz barqarorligi, umuminsoniy, milliy va diniy qadriyatlarimizga qarshi qaratilgan, milliy o'zligimizni, xalqimizning asrlar davomida shakllangan hayot tarzini barbod qilishga yo'naltirilgan tahdidlarga qarshi kurashishning samarali usul va vositalarini ishlab chiqish va qo'llash ishlarini ham ham zamonga moslashimiz kerak.

Ommaviy axborot vositalari, shu jumladan, global internet tarmog'i orqali tarqatilayotgan buzg'unchi g'oyalar, g'arazli axborotlar, odob-axloqni yemiruvchi illatlar, yoshlarni zalolatga boshlovchi "jozibador" tasvirlar va media mahsulotlar tarqalishining oldini olish yuzasidan ishlarni kuchaytirish zarur.

Unutmaslik kerakki, ommaviy axborot vositalarida, ijtimoiy tarmoqlarda xolis axborotlarning o'z vaqtida berib borilishi yolg'on ma'lumotlar tarqalishini oldini oladi.

### **XULOSA**

Prezidentimiz bir jumlani alohida ta'kidlagan, agar "Kimki ma'naviyat masalasi bu faqat Ma'naviyat markazi yoki tegishli vazirlik va idoralarning ishi, deb o'ylasa, katta xato qiladi. Bularning hammasi davlatimiz va jamiyatimizning, barcha rahbarlarimiz, bizning ishongan tog'imiz bo'lgan ilg'or ziyolilarimiz, barcha-barchamizning eng asosiy va muhim vazifamizdir."

Bu haqiqatni hammamiz tushunib, anglab yetib, o'z faoliyatimizni shu asosda olib borsak, ma'naviy-ma'rifiy sohada o'z oldimizga qo'ygan vazifalarni albatta muvaffaqiyatli ado etamiz.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

[1] O'zbekiston Respublikasi Prezidenti. "Yangi O'zbekiston – 2030" strategiyasi. – Toshkent, 2023. – URL: <https://president.uz>

[2] Gazeta.uz. "Yangi O'zbekiston – 2030" strategiyasi tasdiqlandi. – Toshkent, 2023. – URL: <https://www.gazeta.uz/oz/2023/09/12/strategy> (murojaat sanasi: 11.09.2025).

[3] O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi. Strategik rejalashtirish va davlat boshqaruvi islohotlari bo'yicha ma'lumotnoma. – Toshkent, 2024. – URL: <https://parliament.gov.uz>

[4] O'zbekiston Respublikasi Milliy Inson huquqlari markazi. Strategiyada belgilangan ustuvor yo'nalishlar va chora-tadbirlar. – Toshkent, 2023. – URL: <https://nhrc.uz/oz/news/m11754> (murojaat sanasi: 11.09.2025).

[5] The Tashkent Times. Uzbekistan 2030 Strategy: targets and highlights. – Tashkent, 2023. – URL: <https://www.tashkenttimes.uz/national/11683-uzbekistan-2030-strategy-targets-highlights> (murojaat sanasi: 11.09.2025).

[6] Kun.uz. Uzbekistan aims for \$200 billion GDP by 2030. – Toshkent, 2024. – URL: <https://www.kun.uz/en/news/2024/10/18/uzbekistan-aims-for-200-billion-gdp-by-2030> (murojaat sanasi: 11.09.2025).